TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR-APREL***
***(DASTLABKI MA'LUMOT)***



Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: 71-202-86-66

Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-46

# Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-aprel oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 27,2 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,7 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 87,0 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 23,7 trln. so‘mni tashkil etdi.




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** - Ishlab chiqaradigan sanoat **D** - Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** - Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *%da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,3 %ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 19,3 %ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,1 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 %ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-aprel oylarida, %da)*




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *%da*

**Ko‘mir** | **Kaolin** | **Tabiiy gaz**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Ko‘mir**, *ming t.* | 1351,1 | 1526,7 | 175,6 |
| **Chaqiq tosh**, *ming t.* | 119,2 | 110,2 | - 8,9 |
| **Kaolin**, *ming t.* | 57,9 | 113,9 | 56,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,7 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,0 %ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**, *(yanvar-aprel oylarida, %da)*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,4 %ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 1,0 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 7,6 % (7,2%), o‘rta-quyi texnologiyali – 56,3 % (55,9 %) va quyi texnologiyalisi – 21,7 % (22,7 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 4,7 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 49,8 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,9 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,4%), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,1 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,0 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,6 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 83,486 ming tonna shakar (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 47,6 %ga oshgan), 12,6 ming tonna kalava ip (11,4 %ga kamaygan), 22,9 mln. litr pivo mahsulotlari (6,8 %ga oshgan) hamda 117,4 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (1,9 %ga oshgan)ligi kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Pishloq va tvorog**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**




**Sement**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar- aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** *ming t.* | 117,4 | 119,6 | 2,3 |
| **Shakar,** *ming t.* | 83,5 | 115,5 | 32,0 |
| **Paxta tolasi** *ming t.* | 23,4 | 25,0 | 1,7 |
| **Portlandsement,** *ming t.* | 1405,5 | 1439,5 | 34,1 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan etil spirti (2021- yilning yanvar-aprel oylariga) 104,1 % mahsulotida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 93,0 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.



## Metallurgiya sanoati

*(yanvar-aprel)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 49,8 %ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 105,6 %ni va ishlab chiqarish hajmi 13578,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-aprel oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,6 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 5,8 %ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 967,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,4 %ni tashkil etgan, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 90,2 %ni va ishlab chiqarish hajmi 2751,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,6 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 2,2 %ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 446,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,4 %ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 74,4 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1735,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*




2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 %ni, fizik hajm indeksi esa 118,4 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 674,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-aprel oylarida)*

2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga koʻra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 96,2 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1319,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.






## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-aprel oylarida)*







2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga koʻra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 3,7 martani tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 36,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*(yanvar-aprel oylarida)*

*FHI %da*






2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 130,9 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1283,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-aprel oylarida)*

2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 24,5 %ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 582,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



*FHI %da*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-aprel oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (8,8 %ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 19,1 %ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-aprel oylarida, %da)*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-*aprel* | 2022- yil yanvar-*aprel* | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 4972,4 | 5506,3 | 533,9 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 1558,9 | 1423,7 | -135,2 |
| **Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan** gaz, *ming kub. m.* | 102087,0 | 3315,0 | -98772,0 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-aprel oylarida*







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,07 trln.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-aprel oylarida, %da)*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mln.so‘m | 238,1 | 251,6 | 13,5 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlar, mln.so‘m | 1429,5 | 1729,6 | 300,1 |

O‘tgan yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarida 121,0 %ni tashkil etdi.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5,4 trln. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,0 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 19,8 %ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,8 % (2021- yil yanvar-aprel oylarida 11,0 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ohangaron tumaniga to‘g‘ri kelib 16,3 %ni, shuningdek, Qibray tumani – 9,2 %ni, Angren shahri – 7,2 %ni hamda Chirchiq shahri – 10,2 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (115,0 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Bekobod (165,4 %), Chirchiq (121,3 %) shaharlarida hamda Ohangaron tumanida (133,2 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*



| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 5 381,9 | 100 | 115,0 |



**Nurafshon**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 98,0 | 1,8 | 158,6 |



**Olmaliq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 141,9 | 2,6 | 178,9 |



**Angren**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 389,4 | 7,2 | 100,4 |



**Bekobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 112,2 | 2,1 | 165,4 |



**Ohangaron**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 560,9 | 10,4 | 126,9 |



**Chirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 548,7 | 10,2 | 121,3 |



**Yangiyo'l**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 115,1 | 2,1 | 105,8 |



**Bo'ka**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 44,8 | 0,8 | 128,3 |



**Zangiota**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 340,5 | 6,3 | 86,3 |



**Yuqori Chirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 203,9 | 3,8 | 99,3 |



**Quyi Chirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 71,9 | 1,3 | 109,0 |



**Qibray**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 495,2 | 9,2 | 103,9 |



**Parkent**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 83,3 | 1,5 | 110,6 |



**Piskent**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 98,2 | 1,8 | 98,9 |



**Oqqo'rg'on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 183,5 | 3,4 | 130,0 |



**Ohangaron**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 878,7 | 16,3 | 133,2 |



**Bekobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 47,3 | 0,9 | 95,9 |



**Bo'stonliq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 188,7 | 3,5 | 143,3 |



**O'rta Chirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 145,4 | 2,7 | 102,7 |



**Chinoz**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 95,2 | 1,8 | 86,4 |



**Yangiyo'l**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 200,4 | 3,7 | 117,2 |



**Toshkent**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 338,5 | 6,3 | 104,6 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmidagi eng yuqori ulush Chirchiq shahriga to‘g‘ri kelib 22,3 %ni, shuningdek, Qibray tumanida – 4,5 % ni, Toshkent tumanida – 6,5 %ni, Zangiota tumanida – 6,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Bekobod (193,4 %) hamda Angren shaharlarida (244,3 %) qayd etildi

**Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 2 495,1 | 100,0 | 118,7 |
| Nurafshon | 65,0 | 2,6 | 167,5 |
| Olmaliq | 108,2 | 4,3 | 197,5 |
| Angren | 146,4 | 5,9 | 90,7 |
| Bekobod | 92,7 | 3,7 | 175,7 |
| Ohangaron | 420,0 | 16,8 | 139,4 |
| Chirchiq | 482,7 | 19,3 | 134,6 |
| Yangiyo'l | 59,1 | 2,4 | 104,4 |
| Bo'ka | 23,1 | 0,9 | 131,1 |
| Zangiota | 202,7 | 8,1 | 94,6 |
| Yuqori Chirchiq | 85,1 | 3,4 | 100,4 |
| Quyi Chirchiq | 39,9 | 1,6 | 109,1 |
| Qibray | 90,9 | 3,6 | 81,6 |
| Parkent | 49,8 | 2,0 | 115,6 |
| Piskent | 22,3 | 0,9 | 101,9 |

**Oqqo'rg'on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 76,4 | 3,1 | 152,9 |

**O'rta Chirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 70,4 | 2,8 | 109,3 |

**Ohangaron**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 24,2 | 1,0 | 100,8 |

**Chinoz**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 60,0 | 2,4 | 95,5 |

**Bekobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 23,8 | 1,0 | 94,0 |

**Yangiyo'l**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 96,2 | 3,9 | 120,1 |

**Bo'stonliq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 40,3 | 1,6 | 94,3 |

**Toshkent**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 215,7 | 8,6 | 108,5 |

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bekobod (130,1 %), Olmaliq (137,0 %) hamda Nurafshon shaharlarida (143,3 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

**Toshkent viloyati**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 2 886,8 | 100,0 | 112,0 |

**Nurafshon**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 32,8 | 1,1 | 143,3 |

**Bo'ka**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 21,6 | 0,7 | 124,8 |

**Olmaliq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 33,6 | 1,2 | 137,0 |

**Zangiota**

| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|
| 136,0 | 4,7 | 76,3 |

| Tuman/shahar | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Angren | 243,4 | 8,4 | 107,5 |
| Bekobod | 17,7 | 0,6 | 130,1 |
| Ohangaron | 138,8 | 4,8 | 99,8 |
| Chirchiq | 69,5 | 2,4 | 72,0 |
| Yangiyo‘l | 55,4 | 1,9 | 106,3 |
| Oqqo‘rg‘on | 107,0 | 3,7 | 117,3 |
| Ohangaron | 854,1 | 29,6 | 134,4 |
| Bekobod | 23,3 | 0,8 | 97,6 |
| Bo‘stonliq | 148,3 | 5,1 | 166,6 |
| Qibray | 405,0 | 14,0 | 111,0 |
| Quyi Chirchiq | 32,8 | 1,1 | 108,8 |
| Parkent | 34,4 | 1,2 | 102,8 |
| Piskent | 77,5 | 2,7 | 98,3 |
| O‘rta Chirchiq | 74,0 | 2,6 | 97,1 |
| Chinoz | 35,6 | 1,2 | 74,4 |
| Yuqori Chirchiq | 118,7 | 4,1 | 98,6 |
| Toshkent | 123,5 | 4,3 | 98,4 |
| Yangiyo‘l | 103,8 | 3,6 | 115,1 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4,4 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,3 %ni tashkil etdi.

## Toshkent viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 27 242,4 | 100 | 109,7 |
| Nurafshon | 370,5 | 1,4 | 103,8 |
| Bo‘ka | 211,3 | 0,8 | 121,5 |
| Olmaliq | 11 429,6 | 42,0 | 104,7 |
| Zangiota | 670,8 | 2,5 | 133,2 |
| Angren | 1 200,5 | 4,4 | 100,2 |
| Qibray | 1 763,4 | 6,5 | 113,6 |
| Bekobod | 3 621,1 | 13,3 | 117,5 |
| Quyi Chirchiq | 207,2 | 0,8 | 93,5 |
| Ohangaron | 1 018,7 | 3,7 | 96,3 |
| Parkent | 145,9 | 0,5 | 105,4 |
| Chirchiq | 1 664,1 | 6,1 | 101,6 |
| Piskent | 135,7 | 0,5 | 81,4 |

| Yangiyo‘l | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Yangiyo‘l | 172,7 | 0,6 | 96,4 |
| O‘rta Chirchiq | 444,5 | 1,6 | 113,8 |
| Oqqo‘rg‘on | 249,8 | 0,9 | 91,3 |
| Chinoz | 290,3 | 1,1 | 122,8 |
| Ohangaron | 1 590,7 | 5,8 | 117,3 |
| Yuqori Chirchiq | 476,2 | 1,7 | 103,5 |
| Bekobod | 82,2 | 0,3 | 113,0 |
| Toshkent | 593,2 | 2,2 | 108,9 |
| Bo‘stonliq | 519,7 | 1,9 | 120,2 |
| Yangiyo‘l | 384,2 | 1,4 | 97,2 |

## Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, %da



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Olmaliq (2021- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 104,7 %), Bekobod (117,5 %) shaharlarida hamda Zangiota tumanida (133,2 %) sezilarli darajada oshdi.

## Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng koʻp ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 42,0 %), Bekobod (13,3 %), Chirchiq (6,1%), Angren (4,4%) va Ohangaron (3,7%) shaharlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Eng past koʻrsatkich esa Parkent (0,5 %) hamda Bekobod (0,3 %) tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (84262,4 ming soʻm), Ohangaron (6163,4 ming soʻm) va Bekobod (36120,8 ming soʻm) shaharlarida oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (9339,7 ming soʻm) ancha yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Viloyat boʻyicha aholi jon boshiga isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1845,1 ming soʻm boʻlgani holda, Ohangaron shahrida – 3393,6 ming soʻmni, Zangiota tumanida – 2028,3 ming soʻmni, Qibray tumanida – 2864,7 ming soʻmni, Chirchiq shahrida 13694,8 ming soʻmni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | 9339,7 | 1845,1 |
| Nurafshon | 7005,9 | 1853,0 |
| Bo‘ka | 1619,4 | 343,6 |
| Olmaliq | 84262,4 | 1046,4 |
| Zangiota | 3995,7 | 2028,3 |
| Angren | 6865,0 | 2226,9 |
| Qibray | 10201,3 | 2864,7 |
| Ohangaron | 6163,3 | 3393,6 |
| Quyi Chirchiq | 1846,9 | 641,0 |
| Bekobod | 36120,8 | 1119,5 |
| Parkent | 845,7 | 483,0 |
| Chirchiq | 41537,0 | 13694,8 |
| Piskent | 1308,3 | 947,0 |
| Yangiyo‘l | 2156,1 | 1437,6 |
| O‘rta Chirchiq | 3330,5 | 1089,5 |
| Oqqo‘rg‘on | 2302,1 | 1690,7 |
| Chinoz | 2079,3 | 682,2 |

| Ohangaron | |
|---|---|
| Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| 14822,2 | 8187,4 |

| Yuqori Chirchiq | |
|---|---|
| Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| 3530,8 | 1511,8 |

| Bekobod | |
|---|---|
| Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| 511,4 | 294,1 |

| Toshkent | |
|---|---|
| Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| 3152,3 | 1798,6 |

| Bo'stonliq | |
|---|---|
| Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| 3003,0 | 1090,6 |

| Yangiyo'l | |
|---|---|
| Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
| 1995,9 | 1040,9 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida, %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2,9 trln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 10,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Zangiota (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (60,1 %), Quyi Chirchiq (51,0 %), Toshkent (66,0 %) tumanlarida kuzatildi.





Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Olmaliq (1,4 %), Bekobod (1,0%) va Chirchiq (8,1 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Toshkent viloyatida yangi**
**tashkil etilgan sanoat korxonalari**
*(2022- yil 1- may holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 9302 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1293 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 13,9 %) Zangiota tumaniga, 876 tasi (9,4 %) Qibray tumaniga, 796 tasi (8,6 %) Toshkent tumaniga, 512 tasi (5,5 %) Chirchiq shahriga, 450 tasi (4,8 %) Angren shahriga to‘gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 462 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 33 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 7,1 %) Qibray tumanida, 61 tasi (13,2 %) Zangiota tumanida, 31 tasi (6,7%) Toshkent tumanida, 31 tasi (6,7 %) Yangiyo'l tumanida, 16 tasi (3,5 %) Yuqori Chirchiq tumanida tashkil etildi.